

Aziz vatandoshlar!

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti rahbariyati va xodimlari sizlarni chin yurakdan bugungi bayram – **Xotira va qadrlash kuni, Buyuk G'alaba kuni** bilan muborakbod etadi!

Shafqatsiz va mashaqqatli urushning og'ir yo'llarini bosib o'tgan ota-bobolarimiz tomonidan urushdan keyingi avlodlarga in'om etilgan **TINCHLIK va OZODLIK** hozirgi kunda bizning mamlakatimiz hayotining asosidir.

Yillar o'tgan sari, avlodlar almashadi, lekin Buyuk G'alaba xalqimizning milliy g'ururi, harbiy shon-sharafi va uning jasurligi ramzi sifatida qalbimizda qoladi.

Faxriylar safi tobora kamayib bormoqda, ammo ularning ismlari va ko'rsatgan jasoratlari bizning xotiramizda abadiy qoladi.

Sizlarga, oilangiz va yaqinlaringizga chin dildan sog'lik va farovonlik, tinchlik va barqarorlik, vatanparvarlik va yurtimizning porloq kelajagiga cheksiz ishonch tilaymiz!

*Hurmat bilan,
TTPU ma'muriyati*